

**BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA QO‘LLANADIGAN FITONIM,
ZONIMLARNI O‘QITISHGA ARIAL YONDASHUV**

Matnazarov Javlonbek,

UrDU o‘qituvchisi.

Yo‘ldasheva Sadoqat

UrDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsligida berilgan o‘simlik va hayvon nomlarining o‘ziga xos tomonlari, arial nomlanishidagi tafovutlar hamda shular natijasida yuzaga keladigan ta‘limiy muammolar haqida atroflicha ma‘lumot berilgan.

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация о специфике названий растений и животных, различиях в наименовании ариал и в результате из этого образовательных проблемах в учебнике для начальной школы.

Annotation. This article provides detailed information about the specifics of the names of plants and animals, the differences in the naming of arial and the resulting educational problems in a textbook for elementary school.

Kalit so‘zlar. Sheva so‘zlari, ognonimlar, fitonimlar, zoonimlar, iste‘mol doirasi chegaralangan so‘lar.

Ключевые слова. Диалектные слова, огнонимы, фитонимы, зоонимы, Слова с ограниченным объемом.

Keywords. Dialect words, ognonyms, phytonyms, zoonyms, Words with a limited volume.

Boshlang‘ich sinf “Ona tili” va “O‘qish” darsliklarida berilgan ertak, hikoya, she‘rlar, ilmiy, ilmiy-ommabop matnlarda tabiatga doir ko‘plab materiallar, ma‘lumotlarga duch kelinadi. Ta‘kidlash kerakki, maktab ostonasiga ilk qadam

qo‘ygan o‘quvchi uchun tabiat mavzusi yangilik emas va o‘rganish vaqtida, tushinishda o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Lekin maktab darsliklarida o‘quvchi va hattoki o‘qituvchi uchun ham yangi so‘zlar yoki tanish bo‘lsa ham ma‘nosini bilmaydigan so‘zlar, ya‘ni ogonimlar uchraydi. Shuning uchun 1 – 4-sinf “Ona tili” va “O‘qish” darsliklarini tahlil qilishga qaror qildik. Darsliklarni tahlil qilish natijasida shularni aniqladikki: boshlang‘ich sinf darsliklaridan ”Ona tili” va “O‘qish” kitoblarida hayvon va o‘simlik nomlaridan 110 tasi uchraydi. Shundan 33 ta qush nomlari, 8 ta darranda, 16 ta uy hayvoni nomi, 21 tasi yovvoyi hayvon nomlari, 32 ta o‘simlik nomlari ekanligi aniqlandi. Shulardan ko‘pchiligi boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilar va ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar uchun notanish yoki so‘zini eshitishgan, lekin o‘zini qanday hayvon yoki o‘simlik ekanini tasavvur qila olishmaydi. Bundan anglashiladiki, darsliklarda berilgan o‘simlik yoki qushlarning suratlari bilan o‘quvchilarni tanishtirishda muammolarga duch kelinadi. Chunki ko‘pchilik o‘simlik yoki qushlar nomi bir biri bilan o‘xshash va xattoki sinonim ham bo‘lib chiqishi mumkin. Adabiy til va shevaga xos so‘zlarni bir biridan ajrata olmaslik holatlari kuzatilyapti. Shuning uchun bu bo‘yicha oliy ta‘limning Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida so‘rovnomma o‘tkazildi. Natijada to‘plangan materiallarning 40 foizi talabalar uchun ham notanish ekani aniqlandi. Talabalar so‘zni bilishadi lekin ma‘nosini anglashmaydi, ya‘ni bu so‘z qanday o‘simlik, hayvon yoki qushni bildirayotganini aytib bera olishmaydi. Shevada ishlatiladigan so‘zlarning adabiy tilda qanday atalishini bilmasdan ularning shevaviy variantini bilishadi. Bularning barchasi arial o‘ziga xosliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, Xorazm arialida **sada** so‘zini eshitganlar, ammo ko‘plar bu so‘z **gujum** ekanini bilmaydilar. Shunday so‘zlardan **qumri** (musicha), **rujja** (ko‘ksulton), kabi so‘zlar adabiy ekvivalenti xorazmliklar uchun notanish ekanligi aniqlandi. Bir so‘zning har xil hududda turlicha aytiladigan sinonim so‘zlari mavjudligi barchaga yaxshi ma‘lum. Shunga asosan vohada “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanlariga maxsus yondashuv qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki yangi o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z ona tilining qanchalar boy va go‘zal til ekanligini bilishi

anglashi darkor. O‘z ona tilini mukammal bilmagan inson boshqa tillarni ham mukammal o‘rgana olmaydi.

Ishni boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan qushlar nomini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz. Boshlang‘ich sinf “Ona tili” va “O‘qish” darsliklarida turli xil qushlarning nomi keltirilgan. Masalan: bo‘zto‘rg‘ay, suqsur, turumtoy, betilmoch, to‘rg‘ay, qarchig‘ay, kaklik, sa‘va, mayna, zag‘izg‘on va shunga o‘xshash yana turli tuman qushlar nomi keltirilgan. Endi shular ichidan o‘zining adabiy va shevaga xos ekvivalenti bor so‘zlarni ko‘rib chiqamiz:

“Saidning **sa'vasi**, sabzining sarasini, // Mahmudning **maynasi**, mayizning maydasini yeydi”¹. Ushbu she‘rda berilgan sa‘va va mayna so‘zlarining ma‘nosini izohli lug‘atdan qarab ko‘ramiz. “Sa‘va

– chumchuqsimonlar turkumiga mansub rang-barang patli sayroqi tog‘ qushi. Tog‘oldi joylardagi bog‘larda ko‘p uchraydi”², “Mayna - chumchuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi qush. Mayna Xorazm shevasida avg‘on maynasi yoki do‘xtir qush deb ham yuritiladi”³.

“Yashil libos daraxtlar, taqdi yana zar baldoq.

Qushlarga gap tayinlab, chag'chag'laydi **zarg'aldoq**”⁴.

“**Zarg'aldoq** - chumchuqsimonlar oilasiga mansub qanotlari qoramtir o‘zi sariq sayroqi qush”⁵.

“Chumchuqlar va **musichalar** o‘lkamizda qishlaydilar”⁶. Izohli lug‘atda musicha so‘ziga “...kaptarsimonlar oilasi g‘urraqlar urug‘iga mansub odamga yaqin yashaydigan beozor yuvosh qush”⁷. Xorazm aholisi musichani qumri deb biladi. Demak uni vohalik o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘rgatayotgan paytda biz bu qushni qumri tarzida ishlatamiz. Qumri va musicha so‘zlari bir xil ma‘noni anglatadi deb o‘rgatib ketish joiz bo‘ladi. Aks holda keyinchalik o‘quvchilarda tushunmovchilik

¹ T.G‘afforova. O‘qish kitobi: 1- sinf uchun darslik – T: “Sharq”, 2017 – B.123.

² O‘zbek tili izohli lug‘ati 2- jild. – T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – B.529.

³ O‘zbek tili izohli lug‘ati 2- jild. – T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – B.529.

⁴ T. G‘afforova. O‘qish kitobi: 2- sinf uchun darslik – T: “Sharq”, 2016. – B.49.

⁵ O‘zbek tili izohli lug‘ati 2- jild. – T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – B.140.

⁶ Ikromova R. Ona tili: 4- sinf uchun darslik – T: “O‘qituvchi”, 2015 – B.22.

⁷ O‘zbek tili izohli lug‘ati 2-jild. T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – B.648.

yuzaga kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun esa o'qituvchi bolalarga suratlar orqali ko'rsatib, solishtirib taqqoslab berishi kerak.

“Amudaryo qirg'oqlarida **qirg'ovullar** ko'p. Faqat qirg'ovullar emas, yovvoyi o'rdak, loyxo'rak, turna, to'rgaylar va boshqa turli-tuman qushlar ham ko'p”⁸. Qirg'ovul - **tustovuq**. Tovuqlar zotiga mansub patlari chiroyli asosan to'qayzorda yashaydigan ovlanadigan qush⁹. Qirg'ovul Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida “sulgun” “tustovuq” nomi bilan yuritiladi. Demak, agar o'quvchilarni bu qush bilan tanishtirayotgan paytda rasmini ko'rsatib tanishtirsak bu qushni oldin ko'rgan yoki oilasida kimdir bu qushni sulgun yoki tustovuq nomi bilan ishlatganini eshitgan o'quvchilar bo'lishi mumkin shuning uchun o'qituvchi o'qitayotgan paytda bu tomonlariga alohida e'tibor qaratishi lozim.

“To'rg'ay - chumchuqsimonlar oilasining bir turiga mansub kichgina sayroqi qushlarning umumiy nomi”¹⁰. Ko'rinishidan kaptarlarga o'xshash, lekin aynan kaptar bo'lmagan qush turi. O'qituvchi yoki talaba bu qushni bir ko'rishda kaptar deb o'ylashi mumkin. Chunki tashqi ko'rinishdan bir biriga o'xshashdir.

“Jo'rchi respublikamizning sahrolarida va tog' etaklarida Amudaryo sohillarida, Qarshi cho'llarida uchraydi”¹¹. Jo'rchi- yirtqich qushlarning qarchig'aysimonlar oilasiga mansub bir turi¹².

“Bir kuni chittakka baxt kulib boqdi. Qishning o'rtalarida chittak chumchuqning bo'sh inini topib oldi”¹³. Chittak kichkina chaqqon sayroqi qush. Daraxt kovaklari va shox shabbalarga uya quradi¹⁴.

4-sinf “O'qish” kitobida berilgan Mirtemirning “Qush tili” she'ri qushlar haqida bo'lib, unda aytib o'tilgan qushlarning hammasi ham o'quvchiga tanish emas. O'zining ish faoliyatini nafaqat yangi boshlayotgan balki ko'p yillik ish tajribaga ega o'qituvchi uchun ham bu qushlarning nomi notanish yoki bo'lmasa nomini

⁸ Ikromova R. Ona tili: 4-sinf uchun darslik - T: “O'qituvchi”, 2015.- B.64.

⁹ O'zbek tili izohli lug'ati 4-jild. T:”O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.205.

¹⁰ O'zbek tili izohli lug'ati 4-jild. T:”O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.246.

¹¹ R.Ikromova. Ona tili: 4-sinf uchun darslik - T: “O'qituvchi”, 2015.- B.100.

¹² O'zbek tili izohli lug'ati 2-jild. T: ”O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.119.

¹³ Ikromova R. Ona tili: 4-sinf uchun darslik - T: “O'qituvchi”, 2015.- B.122.

¹⁴ O'zbek tili izohli lug'ati 4-jild. T:”O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.496.

biladi, o'zini ko'rinishini tasavvur qila olmaydi yoki arial jihatdan qarasak bu qushlarning hududlarda boshqa nom bilan ya'ni shevada atalishini bilishadi. Ona tilimizda bir xil o'simlik yoki hayvonlarning turli xil sinonim nomlari mavjuddir. Shuning uchun ham o'quvchilar yoki o'qituvchilar so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shevada va adabiy tilda turlicha ataladigan so'zlarni guruhlarga ajratadigan bo'lsak ikkita guruh shakllanadi. Bular ko'pchilikka adabiy va shevada ham ishlatilsa, tanish bo'lgan ya'ni adabiy tilda atalishini ham shevada ishlatilishini ham biladigan so'zlar, ikkinchi guruh esa yo adabiy tildagisini yo shevada foydalanadigan turini biladigan so'zlarga ajraladi. Masalan zag'izg'on bu adabiy yoki ilmiy tilda ishlatilsa, Hakka sheva tilida ishlatiladi. Bu qushni ko'pchilik ko'rsa Hakka deb biladi, zag'izg'on qanday qushligini so'rasangiz o'ylanib qolishadi. Hakka va zag'izg'on so'zlari sinonim so'zlar ekani ko'p odamlarga notanish. Yana bir misol tepada aytib o'tilgan musicha Xorazm shevasida qumri deb yuritiladi. Lekin ba'zi odamlar musichani shevaga xos ekvivalenti qumri emas chumchuq deb o'ylashadi tajribalarimiz asosida aniqlandi. Agar bular inobatga olinib, "Ona tili o'qitish metodikasi" uchun maxsus metodik qo'llanma sifatida fitonimlar va zoonimlar lug'ati tuzilib, foydalanishga berilsa, o'qituvchilar o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirishda muammoli vaziyatlarga duch kelishmas edi. Lug'at tuzishda arial o'ziga xosliklar ham inobatga olinib biror o'simlik qush yoki hayvon nomining barcha shevalarda qanday ishlatilishi ham qo'shib yozilsa bundan O'zbekiston hududidagi barcha o'qituvchi, o'quvchi, talaba yoshlar bemalol foydalana olishgan bo'lar edi. Bu lug'at o'sib kelayotgan yosh avlodning so'z boyligi oshishiga ham katta yordam bergan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fuzailov S. Ona tili // 3- sinf uchun darslik – T: “O‘qituvchi”, 2016. – 152 bet.
2. Ikromova R. Ona tili // 4- sinf uchun darslik – T: “O‘qituvchi”, 2015. – 192 bet.
3. Matchanov S. O‘qish kitobi // 4- sinf uchun darslik – T, 2015. – 240 bet.
4. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi – T: “Noshir”, 2009. – 352 bet.
5. Umarova M. O‘qish kitobi // 3- sinf uchun darslik – T: ”O‘qituvchi”, 2016. – 216 bet.
6. O‘zbek tili izohli lug‘ati // 1-5 jild. – T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
7. Qosimova K. Ona tili // 2- sinf uchun darslik – T: “Cho‘lpon”, 2016. – 136 bet.
8. G‘afforova T. Ona tili // 1- sinf uchun darslik – T: “Sharq”, 2017. – 112 bet.
9. G‘afforova T. O‘qish kitobi // 1- sinf uchun darslik – T: “Sharq”, 2017. – 127 bet.
10. G‘afforova T. O‘qish kitobi // 2- sinf uchun darslik – T: ”Sharq”, 2016. – 173 bet.